

*Taxiatosh tumani*  
*Axborot-kutubxona markazi*  
*Axborot-bibliografiya xizmati*



*Iqtidorli lirik Rus yozuvchisi*  
*Sergey Aleksandrovich Esenin (1895-1925) 130-yoshda*  
*(Bibliografik sharh)*

*Taxiatosh 2025*

## Sergey Esenin hayoti va ijodi

Sergey Esenin 1895-yil 3-oktabrda Rossiyaning Ryazan shahri atrofidagi Konstantinovo qishlog'ida tavallud topgan. Hozirgi kunda bu qishloq Esenin qishlog'i deb ataladi. Mashhur shoir muallim bo'lishi mumkin edi: Sergey Esenin 1909 yilda Konstantin bilim yurtini a'lo baholarga tamomlab, keyin cherkov-muallimlik maktabiga o'qishga kirdi, biroq bir yarim yil ta'lim olgach, u yerni tark etdi, o'qituvchilik kasbi uni qiziqitmas edi. 1913 yilning sentabrida Moskva shahrida Esenin Shanyavskiy nomidagi xalq universitetida o'qiy boshladi. Universitetda bir yarim yil davomida ilm olish unga yetishmayotgan ta'limni berdi. Natijada shoir mustaqil ravishda shug'ullanib, ko'p o'qidi va o'zining aqliy salohiyati bilan mashhur bo'ldi.

Esenin Moskvaga kelganida o'n yetti yoshda edi. Uni yagona maqsadi – Rossiyadagi eng mashhur shoir bo'lishdan iborat bo'lgan. Bir yil o'tgach, tipografiyada u bilan ishlaydigan Anna Izryadnovani qattiq sevib qoldi. Anna bilan qurilgan nikoh ilk kunlardan o'ziga xato bo'lib ko'rinishga boshladi. O'sha paytda uni ko'proq karera qiziqitardi. U oilasini tashlab, baxt izlash maqsadida Petrogradga ketdi. Izryadnova o'z xotiralari uni yodga olib, shunday dedi: “Vafotidan bir oz vaqt oldin uni ko'rgan edim. Xayrlashish uchun kelganini aytdi. Nima uchun bunday deya yotganini so'raganimda shunday dedi: “Ravona bo'lyapman, ketyapman, o'zimni yomon his qilyapman, o'lsam kerak”. O'g'limizni asrash va erkalatmaslikni aytdi”.

Sergey va Annaning farzandi Yuriyning taqdiri fojiviy tarzda yakun topdi: 1937 yilning 13 avgust kuni, u Stalinga suiqasd uyushtirishda yordam ko'rsatganligi aybi bilan otib o'ldirilgan.

Mashhur aktrisa Zinaida Rayx Eseninning hayotidagi go'zal ayollardan biri bo'lgan. U shu darajada betakror ediki, shoir uning qo'lini so'radi. Ular 1917 yilda turmush qurdilar, Zinaida shoirga ikki farzand — Tatyana va Konstantinni hadya etdi. Biroq uch yil o'tgach, ular ajrashishdi. Shoirning Zinaidaga bag'ishlangan eng mashhur she'ri – “Ayolga maktub”dir.

Sergey Esenin sifilofobiya, ya'ni sifilis bilan kasallanish qo'rquvidan aziyat chekardi. Bu haqda do'sti Anatoliy Mariyengof shunday hikoya qiladi: “Burni ustiga non uvog'i hajmidagi yara chiqishi bilanoq u ko'zguna asabiy tarzda boqar edi. Bir kuni hatto kutubxonaga dahshatli kasallikning alomatlari to'g'risida o'qish uchun bordi...” U militsionerlardan ham juda qattiq qo'rqar edi. Bir kuni Volf Erlix bilan Yozgi bog' yonidan o'tib keta turib, Esenin eshik yonidagi qo'riqchiga ko'zi tushdi. “U birdan meni yelkamdan ushlab, o'zi kun botar tarafga yuzi bilan turar edi, men esa qo'rqinch hissi bilan to'lgan ko'zlarini ko'rdim. U qattiq nafas olar va xansirar edi:

“Eshit! Biroq hech kimga so‘z ochma! Men senga rostini aytaman! Men militsiyadan qo‘rqaman. Tushundingmi? Qo‘rqaman!...”, — deya xotirlaydi Erlix.

Esenin 1920-yillarda bir necha marotaba AQShga va Yevropaga borgan. Eseninning birinchi she‘riy to‘plami „Radunitsa“ 1916-yilda chop etilgan. Ilk she‘riy to‘plamidayoq shoir qalb holatlarini nozik tuyg‘ularda berishni, tabiat bilan bog‘liq ruhiy kechinmalarni ifodalashning ustasi, qishloq hayoti, xalq tili va qalbining bilimdoni ekanligini namoyish etgan. 1919-1922-yillarda Esenin *imajinist* (ijodning maqsadini asarning mazmuniga mos kelishi shart bo‘lmagan obrazlarni o‘ylab topishda deb tushunuvchi)lar guruhida bo‘lgan. „Moskva mayxonalari“ (1924) va boshqa turkum she‘rlarida, „Qora odam“ (1925) dostonida shahar hayotining yaramas tomonlari, qishloqni xonavayron qilayotgan „taraqqiyot“ haqqoniy aks ettirilgan. Esenin „Anna Snegina“ (1925) dostoni hamda „Sho‘ro Rusi“, „Zamin darg‘asi“ (1925) to‘plamlarida „kommuna oyoqqa turg‘izayotgan Rus“ni anglashga harakat qilsa ham, o‘zini „o‘tmishga aylanayotgan Rus“ning shoiri deb bildi.

1924-1925-yillarda Yesenin O‘rta Osiyo va Kavkazorti mintaqalarida sayohatda bo‘lgan. Esenin qisqa bo‘lsa-da Toshkentda ham yashagan, Samarqand shahrida bo‘lgan. Esenin „Fors taronalari“ (1924-1925) deb nomlangan she‘rlar turkumi Kavkazorti o‘lkalariga sayohati chog‘ida yaratilgan. „Fors taronalari“ she‘rlar turkumi Hofiz, Sa‘diy Sheroziy, Umar Xayyom kabi sharq ijodkorlariga cheksiz hurmat-ehtirom mahsuli sifatida dunyoga keldi. „Tanlangan she‘rlar“, „Zamin darg‘asi“, „Lirika: she‘rlar, dostonlar“ she‘riy to‘plamlari Erkin Vohidov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan (1965, 1970, 1981). 1985-yil Toshkentda shoirning uy-muzeyi ochilgan.

Esenin o‘limidan bir kun avval do‘stiga atab she‘r yozgan. Shoirning eng mashhur misralaridan biriga aylangan bu she‘rni Erkin Vohidov o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan:

*Rus tilida*

Do svidanya, drug moy, do svidanya.  
Miliy moy, ti u menya v grudi.  
Prednaznachennoe rasstavane  
Obesnaet vstrechu vpered.

Do svidanya, drug moy, bez ruki, bez slova.  
Ne grusti i ne pechal brovey. —  
V etoy jizni umirat ne novo.  
No i jit, konechno, ne novey.

*Erkin Vohidov tarjimasi*

Xayr endi, xayr, do‘stginam.  
Bag‘rimdasan, ko‘ngil malhami.  
Muqarrar bu ayriliqning ham  
Visoli bor oldinda hali.

Xayr, do‘stim, so‘zga ochma lab,  
Qo‘y, men uchun o‘rtama bag‘ir,  
Bu hayotda o‘lmoq-ku bor gap,  
Yashamoq ham yangimas, axir!

Esenin faqat she‘r yozib qolmay bir qancha hikoya ham yozgan. „Jar“ (1916) qissasi, „Bobil va Drujok“ (1917) hikoyasi, „Temir Mirgorod“ ocherkida Yeseninning nasriy imkoniyatlarini namoyish etgan.

1925 yilning boshlarida Sergey Esenin Lev Tolstoyning nabirasi Sofya bilan tanishdi. U Esenindan 5 yoshga kichik edi, Sofyaning tomirida dunyodagi buyuk yozuvchining qoni oqardi. Sofya Andreyevna Yozuvchilar ittifoqi kutubxonasini

boshqarardi. Turmush qurishgach, u namunali rafıqa bo'ldi: shoirning sog'lig'iga e'tibor qaratdi, she'rlarini to'plam uchun tayyorladi. Va mutlaqo baxtli edi. Esenin esa do'stining "Hayoting qanday?" savoliga "Uch tomli she'rlar to'plamini tayyorlayapman va sevmagan ayolim bilan yashayapman" – deya javob bergan. Shoir muhabbatiga sazovor bo'lmagan Sofya beva qoldi.

1925 yilning 28 dekabrda Eseninni Leningrad mehmonxonasida "Angleter"da jonsiz tarzda topishdi. Uning so'nggi she'ri – "Alvido, do'stim, alvido...", — Volf Erlixning guvohlik berishicha, biroz vaqt oldin mazkur she'r unga Yesenin tomonidan berilgan: Esenin mehmonxona xonasida siyoh yo'qligi va uni qoni bilan yozishga majbur bo'lganidan nolidi.

Shoirning vafoti tilsimi hanuz yechilmagan. Rasmiy ommaviy tarzda qabul qilingan fikrlar shundan iboratki, u o'z joniga qasd qilgan. Biroq Esenin siyosiy nuqtai nazardan o'ldirilganligi, suiqasd esa uyushtirilgan, degan shubhalar ham mavjud.

Shunga qaramay Esenin – fojyeaviy shoir emas. Uning she'rlari – hayot madhiyalaridir. Madh etilgan hayot oldindan aytib bo'lmaydigan, afsuslarga limmolim, mashaqqatli bo'lishiga qaramay, go'zalligini saqlab qolgan. Bu bezori va janjalkash, abadiy bolakay va buyuk donishmand madhidir.

## **Esenin bo'lib gapirmoq baxti**

Eseninning qalb olami bu – go'zallik va ezgulikka to'la, o'ta muhabbatli, hatto ziddiyatli va nihoyat, fojiali. Aytishlaricha, quyoshga tik qaray oladigan jonzot – bu she'r ekan.

Badiiy tarjimaning mukammal namunasini yaratish, umuman olganda, tarjimon iqtidoridan tashqari yana ko'p jihatlarni, izlanishlarni talab qiladi. Avvalo, shoir shaxsini, so'ng o'sha davrni, siyosatni, ijtimoiy va adabiy muhitdagi ziddiyatlarni, asarning yozilish sabablarini, maqsad va g'oyasini, nima demoqchi ekanligini zukko olim kabi o'rganish va nihoyat, shoir dardlarini va uning zamon ziddiyatlari ichra urib turgan yurak holatini butun nozikliklari bilan his qila olishi kerak. Bularning hosilasi esa she'r ruhiyatini qay darajada aniq bera olganlikda bilinadi. Erkin Vohidov tarjimalarining yutug'i ham aynan shunda.

Esenin she'rlarining ruhiyatini anglab etishga yordam beruvchi yana bir faktga qisqagina to'xtalib o'tishni joiz deb bildik. Mutaxassislarga ma'lumki, taqdiri ziddiyatli kechgan rus yozuvchisi Ivan Buninning ijodi lirizmning kuchliligi bilan ajralib turadi. Chunki u jamiyat va inson taqdiri masalasiga qalb dunyosi bilan qaragan. Insonning yashashdan maqsadi va umr mazmunini, tiriklik mohiyatini uning ko'ngil dunyosini izlagan. Ijtimoiy o'zgarishlarning ahamiyati va qimmatini qalb ehtiyojlari doirasidan turib baholagan. Afsuski, har bir davr, har bir tuzum siyosatining poydevori esa asosan iqtisod bo'lib kelgan, albatta, ko'ngil emas. Endi tasavvur qilavering, ko'ngil odamlarning dardu armonlarini. Shuning uchun ham inson qalbi oyoq osti qilingan

o'sha vahshatli yillarda Bunin uchun "San'at inson qalbining qo'shig'i, musiqasi va munojoti" bo'lganligini o'zi qayd qilgan.

Esenin ham Bunin kabi o'sha vahshatli davr ijodkori. Qolaversa, shoir va o'ta lirik. Lirikaning vatani esa yurak. Talantlar yurak atalmish mana shu vatanga xiyonat qilmaganlar. Tuzum bilan talant o'rtasidagi ziddiyat ham aynan shundan kelib chiqqan. Mana shu sadoqat tufayli ularning taqdiri og'ir kechgan. Bu kabi jihatlar Esenin va Buninning ruhan yaqin ekanliklaridan ham dalolat beradi. Shuning uchun ham Esenin so'z san'atini tushunish va ayniqsa, tarjima qilishda yuqorida keltirganimiz Bunin qaydlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik foydadan holi emas. Albatta, talantli tarjimon mahorati bilan berilgan shoir she'r-larining ruhi oxir-oqibatda shunga olib boradi va shunday bo'ldi ham. Esenin she'rlari o'zbek tilida "inson qalbining qo'shig'i, musiqasi va munojoti" bo'lib yuraklarni hayrat va larzaga solib kelmoqda.

***Kel, jonim gitaram,***

***Kuylagin bukun.***

***Faqat shod ohangda bo'lsin kuylaring.***

***Toki chiqib ketsin***

***Yodimdan butun***

***Zarra orom bilmay o'tgan kunlarim.***

Bu satrlar 1971 yilda chop etilgan "Zamin darg'asi" kitobidan olindi. Undan o'n yil keyingi nashrda esa tarjimon tomonidan qayta ishlanganligining guvohi bo'lamiz:

***Kel, jonim gitaram,***

***Yangragin bugun!***

***Lo'li qiz, sho'x bo'lsin chalgan kuylaring.***

***Toki unutayin***

***Og'uga to'la***

***Ardoqsiz, oromsiz o'tgan kunlarim.***

Qayta ishlashdan, o'zgartirishlardan maqsad ham "qalb munojoti" bo'lib to'kilgan bu kabi satrlarning ruhini o'sha darajaga etkazishlikdir. Lirik qahramonning ichki kechinmalarini yanada aniq va to'liqroq ochib berishdir.

Inqilob kishilar taqdirini butunlay o'zgartirib yuboradi. Yoshlar yangi davr siyosatiga jo'r bo'lib shiddat bilan odim tashlamoqdalar. Keksalar esa g'amgin. Ba'zilarga tarozining toshi qay tomonga bo'lsa, bas. Dehqonlarga esa kartoshka va non kifoya. Lirik qahramon-chi, eski tuzumdan ko'ngli to'lmagan, yangi tuzumni esa faqat buyuk g'oyalar bilan qabul qilishga tayyor. Shuning uchun ham azobda. "Men-chi, men yoshmasman, qari ham emas – chirib yo'qolgudek bu zamonada. Shunning-chun ham balki sharobxonada Gitara ohangi qilar meni mast", – deydi. Lirik qahramon mana shunday iztiroblar girdobidan chiqish uchun gitaradan va lo'li qizdan madad olmoqchi. Uning iltijosi eng og'ir ruhiy holat. Bu holat she'rning yuragi. Agar shu yurak urishi kardiogrammadek to'g'ri va aniq ko'rsatilsagina butun she'rning ruhiyati saqlanadi.

Tarjimonning keyingi o'zgartirishi natijasida mana shu ruhiy holat nozik ishoralargacha tiklab berilgan. Bunday o'zgartirishlar biz qayd qilib o'tgan nashrda 50 dan ortiq o'rinda uchradi. Ayrim joylarda bir so'zdangina iborat bo'lsa, ba'zi o'rinlarda bir satr, hatto butun bir band qayta ishlangan.

Esenin bo'lib gapirmoq bu juda katta mas'uliyat. Chunki talantlar har bir so'zni xalq ko'z yoshi to'kilgan tuproq misoli olib, uni yurak qoni bilan qorib, badiiyat xumdonida pishirib, sayqal berib, so'ng tiklayotgan she'riyat qasriga mustahkam va qoyilmaqom qilib terib qo'yadilar. Tarjimon, avvalo, shu qasrning go'zalligidan hayratlanishi, uning har bir g'ishtiga yuragini quloq qilib bosishi kerak. Shunda uning butun bir ruhiy dunyosiga mana shu qasrning sirli ohangi quyila boshlaydi. Tarjimon ana shu ohangni etkazishi kerak ekan kitobxonga. Bizning qat'iy xulosamiz – shu. Esenin she'rlarining o'zbekcha tarjimasini o'qiganimizdan keyin shu xulosaga keldik: Esenin she'rlarining ruhi yuragimizni butunlay egallab olgandan keyin, Esenin she'rlarining ajib ohangi ko'nglimizni butunlay hayajonga solib tashlagandan so'ng.

Shuning uchun ham o'zbek adabiyoti va o'zbek kitobxonlari fidoyi, jonkuyar, talantli tarjimon Erkin Vohidovdan doimo minnatdor bo'lib kelganlar va shuni ishonch bilan ayta olamizki, bu minnatdorlik Esenin she'rlari kabi umrboqiydir.

#### ***Foydalangan manbalar:***

<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/bahodir-rahmonov-esenin-bolib-gapirmoq-baxti/>  
<https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/rus-sheriyati/sergey-yesenin/>

Баҳодир Раҳмонов. «Жаҳон адабиёти» журнали, 2019 йил 12-сон



Тайyorлаган:

*Кадирбаева*

J.Kadirbaeva